



«TASDIQLAYMAN»
“Biznesni rivojlantirish banki” ATB
Strategiya bosh direktori:
B.Rakhmatov

«14» iyul 2026 y.
№ 476

“Korzinka” supermarketlari ichki audio tizimida reklama joylashtirish bo‘yicha
TEXNIK TOPSHIRIQ

T/r	Talablar ro‘yxati	Talablar mazmuni
1.	Buyurtmachi	“Biznesni Rivojlantirish Banki” ATB
2.	Xizmat turi	“Korzinka” supermarketlari ichki audio tizimi orqali bank reklama roliklarini 12 oy davomida joylashtirish xizmati
3.	Buyurtmachi manzili	Toshkent shahar, Alisher Navoiy ko‘chasi 18A-uy, 100011
4.	Moliyalashtirish manbai	Bankning o‘z mablag‘lari.
5.	Texnik talab	Bajaruvchi quyidagi xizmatlarni taqdim etishi lozim: ⌚ Buyurtmachining audio reklama roliklarini O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan 250 ta "Korzinka" supermarketi savdo nuqtalarida 12 (o‘n ikki) oy davomida efirga uzatish. Supermarketlar ro‘yxati quyidagi havolada keltirilgan: https://korzinka.uz/ru/stores. ⌚ Shartnoma amal qilish muddati davomida audio reklama tizimi bilan jihozlangan yangi ochilgan "Korzinka" supermarketlari ishga tushirilgan taqdirda, Buyurtmachining reklama roliklarini ushbu savdo nuqtalarida 10 (o‘n) ish kuni ichida joylashtirish. ⌚ Audio reklama roliklarini supermarketlarning ish vaqti davomida Buyurtmachi bilan oldindan kelishilgan media-reja asosida muntazam efirga uzatishni ta'minlash. ⌚ Reklama kampaniyasi davomida Buyurtmachining talabiga asosan audio reklama roliklarini almashtirish, yangilash hamda yangi materiallarni joylashtirish imkoniyatini ta'minlash. ⌚ Reklama materiallarini markazlashgan tarzda boshqarish va barcha belgilangan savdo nuqtalarida uzluksiz efirga uzatilishini ta'minlash. ⌚ Har oy yakuni bo‘yicha reklama roliklarining joylashtirilishi va

		efirga uzatilishi to'g'risida batafsil hisobotni Buyurtmachiga taqdim etish. Texnik parametrlar: ⌚ xizmat muddati – 12 oy; ⌚ audiorolik davomiyligi – 20 soniya (10 soniyadan 2 ta rolik berish ham mumkin); ⌚ har bir supermarketda kuniga 25-30 marta efirga uzatilishi lozim.
6.	To'lovlarni amalga oshirish	Ijrochiga shartnoma imzolangan kundan boshlab 10 bank ish kuni ichida 30% miqdorda oldindan to'lov o'tkazib beriladi. To'lovning qolgan qismi bajarilgan ish hajmiga mos ravishda, topshirish-qabul qilish dalolatnomalari qabul qilingandan so'ng 10 bank ish kuni ichida o'tkazib beriladi
7.	Shartnomaning amal qilish muddati	Shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilgunga qadar amal qiladi
8	Xizmatlarni yetkazib berish muddati	Xizmatlarni yetkazib berish, shartnoma bo'yicha avans to'lovi o'tkazilgan kundan boshlab 10 ish kuni ichida boshlanishi lozim. Xizmatlarni yetkazib berish muddati – 12 oy.
9.	Bajarilgan ishlarni qabul qilish	Ijrochi tomonidan bajarilgan xizmatlar topshirish-qabul qilish dalolatnomalari taqdim etilib, ikki tomonlama imzolangan paytdan bajarilgan hisoblanadi.
10.	Aloqa uchun	(78) 150-93-39 (ichki 570) Osmanov M.

kelishuvchilar: S.Niyazov

<https://hujjat.brb.uz/?pin=vN18mX92&id=bf263ef2-bf2f-4b4b-b0b4-e8c87ecb4d6f>